Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari.....	1772
<b>Shamuratov Marat Xalmuratovich</b>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari.....	1776
<b>Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida maktagacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish.....	1779
<b>Sultonova Shohida Muxtor qizi</b>	
Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari.....	1783
<b>Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna</b>	
Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari.....	1786
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar.....	1791
<b>Turdiyev Azamat Gayratovich</b>	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari.....	1794
<b>Yusupova Xabiba Iriskulovna</b>	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.....	1797
<b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi</b>	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению.....	1799
<b>Маханова Малика Жумабек кизи</b>	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО.....	1803
<b>Умурзакова Умида Наримановна</b>	



Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей ..... 1807 <b>Хуррамова Гузал Равшановна</b>	1807
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari ..... 1810 <b>Norov Nodir Jo'rayevich</b>	1810
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi ..... 1814 <b>Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi</b>	1814
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ..... 1818 <b>Xaqberdiyeva Sh. T.</b>	1818
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ..... 1823 <b>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</b>	1823
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri ..... 1826 <b>Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi</b>	1826
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish ..... 1829 <b>Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna</b>	1829
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni ..... 1833 <b>Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna</b>	1833
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir ..... 1836 <b>D. Teshaboyev, Z. Boymatova</b>	1836

# BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KOUCHING TEXNOLOGIYASI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH

S. E. Kabulova

Guliston davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi tezkor rivojlanayotgan dunyoda ta'lim tizimi ham yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar berish, balki ularning kasbiy kompetensiyalarini, shaxsiy o'sishini va ijodiy salohiyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan, kouching texnologiyalarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarni zamonaviy darslarni samarali tashkil etishga o'rgatishda inqilobiy yechim bo'lishi mumkin. Kouching nafaqat o'qitish usuli, balki o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi falsafadir. Pedagogikada kouchingdan foydalanish nafaqat ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasi, balki uning rahbarlari uchun ham samarali hisoblanadi. Ishbilarmonlik muhitida xodimlarni tanlash va baholashda, tashkilot strategiyasini aniqlashda, rivojlanish rejasini ishlab chiqishda, jamoani shakllantirishda, xodimlarni rag'batlantirishda, kadrlarni tayyorlash va o'qitishda, jamoadagi nizolarni bartaraf etishda, martaba pog'onasida ko'tarilishda va hokazolarda biznes-kouchingdan samarali foydalanilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kouch-pedagog, kasbiy tayyorgarlik, kouching texnologiyalari, takomillashtirish, g'amxo'rlik, bolajonlik, kasbiy halollik, real, keys-stadilar.

**Abstract:** In this article, the education system in today's fast-growing world also demands new approaches and innovative technologies. In the training of future teachers in pedagogical higher educational institutions, it is important not only to provide theoretical knowledge but also to develop their professional competencies, personal growth and creative potential. From this point of view, the integration of coaching technologies into the pedagogical process can be a revolutionary solution for teaching future educators to effectively organize modern lessons. Coaching is not only a teaching method but also a philosophy that encourages self-development and independent thinking. The use of coaching in pedagogy is effective not only for the pedagogical team of the educational organization but also for its leaders. In the business environment, it is believed that business coaching can be effectively used in selecting and evaluating employees, determining the organization's strategy, developing development plans, creating teams, motivating employees, training personnel, resolving team conflicts, moving up the career ladder, and so on.

**Key words:** coach-educator, professional training, coaching technologies, improvement, care, childhood, professional integrity, real, case studies.

**Аннотация:** В этой статье в современном быстро развивающемся мире система образования также требует новых подходов и инновационных технологий. При подготовке будущих педагогов в педагогических вузах важное значение имеет не только передача теоретических знаний, но и развитие их профессиональных компетенций, личностного роста и творческого потенциала. Именно в этом контексте интеграция коучинговых технологий в педагогический процесс может стать революционным решением в обучении будущих педагогов эффективной организации современных занятий. Коучинг – это не только метод обучения, но и философия, поощряющая саморазвитие и независимое мышление. Применение коучинга в педагогике эффективно не только для педагогического коллектива образовательной организации, но и для её руководителей. Высказано предположение, что бизнес-коучинг может быть эффективно использован в бизнес-среде при отборе и оценке сотрудников, определении стратегии организации, разработке плана развития, формировании команды, мотивации сотрудников, подготовке и обучении кадров, разрешении конфликтов в коллективе, продвижении по карьерной лестнице и т. д.

**Ключевые слова:** коуч-педагог, профессиональная подготовка, коучинговые технологии, совершенствование, забота, детскость, профессиональная честность, реальность, тематические исследования.



## KIRISH

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyati doimiy ravishda o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, xatolaridan saboq chiqarish, boshqalar tomonidan qanday tushunilayotgani va anglanayotganini his eta olishidan iborat o'z-o'zini takomillashtirishga undovchi refleksiv qobiliyatni rivojlantirish bilan shartlanadi. Kouching-pedagog zaruriy savollar berish, fikr almashish va tahliliy mashqlar orqali talaba shaxsini o'z tajribalarini tahlil qilishga, kuchli va zaif tomonlarini anglashga, kelajakdagi faoliyatini samarali rejalashtirishiga sharoit yaratadi.

Kouching jarayoni shaffoflik, ochiqlik, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi tamoyillarga asoslanib, nafaqat kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki bo'lajak pedagoglarda kasbiy etika va qadriyatlarini ham shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisida kasbiy burchga sadoqat, adolat, o'quvchilarga g'amxo'rlik, bolajonlik va kasbiy halollik kabi fazilatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi va yuqori axloqiy sifatlarga ega shaxs shakllanishi jarayoniga faol ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglik kasbi shaxslararo munosabatlarning natijasi o'laroq, inson–inson munosabatlarining didaktik-tarbiyaviy jihatdan maqsadga muvofiqligi, ijtimoiy ahamiyatligi va ta'sirchanligi bilan xususiyatlanadi. Bu esa yuqori darajadagi ijtimoiy-emotsional aloqalar bilan shartlanadi.

J.D. Mayer va P. Saloveylarning izlanishlarida emotsional intellekt o'z his-tuyg'ularini hamda boshqa odamlarning his-tuyg'ularini kuzatish, farqlash, tushunish va bu ma'lumotlardan fikrlash samaradorligini oshirish, hayotiy muammolarni hal qilish hamda harakatlarni boshqarish uchun foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijtimoiy intellektning tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonini kouching texnologiyalari bilan takomillashtirish ta'limni tashkil etish shakllari, mazmuni, metod va vositalariga bevosita ta'sir etadi. Ya'ni, bunday ta'lim yuksak interfaollik, individual yo'nalganlik va amaliy xususiyatga egaligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, kouching ta'lim ishtirokchilarida "o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda" alohida o'rin tutadi, deb hisoblaymiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishda J.D. Mayer va P. Salovey tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotchilar emotsional intellektni shaxsning o'zini va boshqalarni anglash, boshqarish, hissiy holatlarni tahlil qilishga doir murakkab psixologik jarayon sifatida talqin etadilar hamda pedagogik amaliyotda uning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, kouching texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiqi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta'lim oluvchilar shaxsiy tajribasini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, kasbiy rivojlanish strategiyalarini belgilash va emotsional barqarorlikni shakllantirish jarayonlari samarali kouching yondashuvlari orqali rivojlanishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Pedagogik etika, kasbiy qadriyatlar va o'qituvchi–o'quvchi o'rtasidagi sog'lom ijtimoiy-emotsional muhitni yaratish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda esa kouching pedagogning refleksiv madaniyati, kommunikativ mahorati va kasbiy o'zlikni anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Ushbu yondashuv bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida mas'uliyat, adolat, halollik va g'amxo'rlik kabi kasbiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60–sonli<sup>1</sup> Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli<sup>2</sup> qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 31–dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059–son<sup>3</sup> qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 6–iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60–sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-3765586>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019–yil 31–dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059–son qarori: <https://www.lex.uz/docs/-4676839>

'Tarbiya' fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422–sonli<sup>4</sup> qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar pedagogik kadrlardan nafaqat bilimli, balki zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, o'zini rivojlantirishga qodir shaxs bo'lishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kouching texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy qilish orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashtirish, ta'lim tashkilotlaridagi o'quv-uslubiy jarayonlarni ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida yo'lga qo'yish, pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini optimallashtirish, ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish asnosida samarali sifat o'zgarishlariga erishish, o'quv jarayonlari va ta'limiy-tarbiyaviy xizmatlar ko'rsatish mazmuni va shaklini yangicha talablar asosida tashkil etish, ta'limiy xizmatlar ta'sirchanligini oshirish, sifatni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish maqsadida "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" faoliyati yo'lga qo'yilganligi va ushbu loyiha ofisining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida o'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning ta'lim dasturlarini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quv dasturlari bilan uyg'unlashtirish kabilarning belgilab berilganligi bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmuniga kouching texnologiyalarini tatbiq etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Shu sababdan ham oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarini nazariy bilimlar bilan qurollantirish, kasbiy mahoratini oshirish bilan birgalikda ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga alohida e'tibor berishi taqozo etiladi. Bunday dolzarb muammoni ijobiy hal etish kouching texnologiyalari asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini ishlab chiqish doirasida hal etilishi lozim.

Kouching texnologiyalari asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish maqsadida ilmiy izlanishlarimiz doirasida "kouching", "kouching texnologiyalari", "kasbiy faoliyatga tayyorlash" kabi tushunchalar tahliliga e'tibor qaratildi. Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv faoliyati turlari belgilab berilgan bo'lib, quyida ushbu talablarni amalga oshirish jarayoniga kouching texnologiyalarini qo'llashning afzalliklariga to'xtalib o'tishni joiz deb hisoblaymiz.

Tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatiga nisbatan belgilab berilgan malaka talablari mazmunida o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish bilan bog'liq vazifalarga e'tibor qaratiladi. Ushbu natijalarga erishishda an'anaviy yondashuvning imkoniyatlaridan foydalanish bilan chegaralanish kutilgan natijalarni bermasligi mumkin. Shunday vaziyatda shaxsga yo'naltirilgan, individual yondashuvni qo'llovchi, interaktiv muloqotga asoslangan kouching texnologiyalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Biroq ta'lim amaliyotida ko'plab bakalavrlar va pedagoglar kouchingni oddiy maslahat berish yoki trening bilan adashtirishi, kouchingning mohiyatini chuqur tushunmasligi, tinglay olish, savol berish, kuzatish va mulo-haza yuritish ko'nikmalarini ifodalovchi kouching kompetensiyalarining yetishmasligi, an'anaviy pedagogik yondashuvlarga qattiq bog'lanish natijasida o'qituvchilar ta'lim oluvchini "passiv" qabul qiluvchi sifatida bilishi, talabalarda javobgarlik va refleksiya bilan bog'liq ko'nikmalarining sustligi kouching jarayonini samarali olib borishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining ilmiy-tadqiqot faoliyatida pedagogika sohasida tadqiqot olib borish, pedagogika va tarbiya fanlariga doir ma'lumotlarni amaliyotga bevosita tatbiq eta olishi, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Mazkur vazifalar bo'lajak mutaxassisdan analitik fikrlash, mustaqil izlanish, refleksiv fikrlash, ijtimoiy empatiya, ilg'or metod va texnologiyalarni tadqiq qilish, ta'lim-tarbiya vositalaridan o'z o'rnida foydalana olish bilan bog'liq kompetensiyalarni o'zlashtirishni taqozo etadi.

Ushbu nuqtai nazardan, kouching texnologiyalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatida qo'llash, avvalo, ilmiy-tadqiqot uchun muhim bo'lgan mustaqil fikrlash, ilmiy muammoni ko'ra olish ko'nikmalarini, jarayonni refleksiv tahlil etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchida ilmiy dalillar asosida fikr yuritish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash qobiliyatini mustahkamlaydi. Kouching metodlari talabalarni "standart" yondashuvlardan chiqib,

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 6–iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 'Tarbiya' fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422–sonli qaror: <https://www.lex.uz/uz/docs/-4885018>



yangilik yaratish istagida aks etuvchi innovatsion yondashuvga yo'naltiradi, talaba shaxsiga o'z maqsadini o'zi belgilash, unga erishish strategiyasini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu bilan bo'lajak o'qituvchilarda shaxsiy mas'uliyat va ilmiy intizomning tarkib topishiga qulaylik yaratiladi. Biroq ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining mustaqil ilmiy fikrlashga tayyor emasligi, ilmiy-tadqiqot madaniyatining pastligi, kouching va tadqiqotchi o'rtasidagi ishonchli hamkorlikning o'z fikrini ochiq bildirishdan tortinish ko'rinishida namoyon bo'lishi, kouching mashg'ulotlari savollarining doim ham ilmiy tafakurga moslashtirilmaganligi mazkur texnologiyani tatbiq etishda noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri – bu bo'lajak pedagoglarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va professional shaxs sifatida tayyorlashdir. Bu jarayonda kouching texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning uzviy integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagoglik kasbining o'ziga xos jihati – bu bilim berishdan tashqari, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanishidir. Shunday ekan, bo'lajak pedagogning o'zida yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy g'urur, bag'rikenglik kabi fazilatlarining shakllanganligi talabning ilgari surilishi tabiiy hol.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallashi, o'quvchilar ongiga yangi taraqqiyot strategiyasi g'oyasini singdirish, o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi, mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbatlar o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi, milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Pedagoglik kasbi insoniylik, ma'naviyatlilik va kasbiy fidoyilikni taqozo etadi. Ushbu holatda kouching texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni uyg'unlashtirish bo'lajak pedagogni kasbiy jihatdan puxta tayyorlashning eng samarali yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq mazkur afzalliklarga qaramasdan, kouching texnologiyalarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bir qator muammoli holatlarning mavjudligi aniqlandi: har bir talabaning qiziqishi, qadriyati, maqsadi e'tiborga olinishi zarurligi; kouching texnologiyalari odatda shaxsiy rivojlanishga qaratilgan bo'lib, ular milliy qadriyatlar asosida yangicha metodikani talab qilishi; ma'naviy tarbiyada kouching yondashuvlarining yetarlicha moslashtirilmaganligi; o'qituvchilarda ma'naviy liderlik ko'nikmalari pastligi; kouching samaradorligi o'qituvchining ichki madaniyati va namunaviy harakatiga bog'liqligi.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi tashkiliy-boshqaruv faoliyatda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqa olish, jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish, fikrlar turlicha bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish, bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi belgilab berilgan.

Kouching mashg'ulotlari orqali bo'lajak pedagog o'z maqsadlari va rejalarini aniqlaydi, strategik fikrlashni o'rganadi. Bu esa ularni tadbirlar, loyiha va tarbiyaviy rejalarini samarali tashkil etish va nazorat qilishga o'rganadi va bu kabi vazifalarni amalga oshirish bo'lajak o'qituvchi shaxsidan liderlik, kommunikativlik, mas'uliyatlilik, mustaqil qaror qabul qilishni talab qiladi.

M.A. Jumayevaning "Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi" mavzusidagi dissertatsiyasida "kreativlik – bu o'qituvchining yangi g'oyalarni yaratish va amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Kreativlikning rivojlanishi loyihalarni yaratishdagi taqlidiy faoliyatdan real ijodga o'tishni anglatadi, buning natijasida o'qituvchi tomonidan ta'lim va tarbiyaning yangi metodi yaratiladi", deb ta'riflanadi.

### Kouching texnologiyasining ta'limdagi o'rni va asosiy tamoyillari

Ta'limdagi kouching – bu o'quvchining shaxsiy va intellektual salohiyatini maksimal darajada ochishga qaratilgan, savol-javob, faol tinglash va teskari aloqa kabi usullarga asoslangan interaktiv jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchi tayyor yechimlarni bermaydi, balki o'quvchini mustaqil ravishda muammoni tahlil qilishga, yechim yo'llarini topishga va o'z qarorlari uchun mas'uliyatni olishga undaydi.

#### Kouchingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Individual yondashuv:	Har bir o'quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga moslashish.
Faol ishtirok:	O'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ularni tinglovchidan ijodkorga aylantirish.
Qo'llab-quvvatlash va motivatsiya:	O'quvchini rag'batlantirish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.
Refleksiya:	O'quv natijalarini tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun fikr-mulohaza olish.
Mas'uliyat:	O'quvchida o'z ta'limi va natijalari uchun mas'uliyat hissini shakllantirish.

**Bo'lajak pedagog kouch sifatida faoliyat yuritishi uchun bir qator yangi kompetensiyalarni egallashi lozim:**

Faol tinglash qobiliyati:	O'quvchini shunchaki eshitish emas, balki uning so'zlari zamiridagi ma'noni, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini anglay olish.
Kuchli savollar bera olish mahorati:	O'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va yangi g'oyalarni generatsiya qilishga undaydigan ochiq, rivojlantiruvchi savollarni qo'ya bilish.
Samarali teskari aloqa o'rnatish:	O'quvchining yutuqlarini e'tirof etish va rivojlanishga muhtoj jihatlarini konstruktiv tarzda ko'rsatib berish.
Ishonch va hamkorlik muhitini yaratish:	O'quvchining yutuqlarini e'tirof etish va rivojlanishga muhtoj jihatlarini konstruktiv tarzda ko'rsatib berish.

**Kouching texnologiyasi asosida darsni tashkil etish**

Kouching texnologiyasini dars jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun turli modellar mavjud. Ular orasida eng ommabop va amaliyotda keng qo'llaniladigani Ser Jon Uitmor tomonidan ishlab chiqilgan "GROW" modelidir. Ushbu model to'rt bosqichdan iborat bo'lib, darsni mantiqiy va izchil tuzishga yordam beradi.

**"GROW" modeli asosida darsning tuzilishi**

Bosqich	Maqsadi	O'qituvchi-kouchning faoliyati va savollari	Bo'lajak pedagog (o'quvchi)ning faoliyati	Bosqich
<b>G (Goal) – Maqsad</b>	Darsning va har bir o'quvchining shaxsiy maqsadini aniqlash.	– Bugungi darsdan nimani o'rganishni xohlaysiz? – Dars oxirida qanday natijaga erishmoqchisiz? – Bu mavzuni o'rganish siz uchun nima uchun muhim?	O'zining shaxsiy o'quv maqsadlarini belgilaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.	G (Goal) – Maqsad
<b>R (Reality) – Haqiqiy holat</b>	Mavzu bo'yicha hozirgi bilim darajasini, mavjud muammolar va to'siqlarni aniqlash.	– Bu mavzu haqida hozir nimalarni bilasiz? – Maqsadga erishishingizga nima yordam berishi mumkin? – Qanday qiyinchiliklarga duch kelishingiz mumkin?	Mavjud bilimlarini tahlil qiladi, bo'shliqlarni aniqlaydi, potensial qiyinchiliklarni muhokama qiladi.	R (Reality) – Haqiqiy holat
<b>O (Options) – Imkoniyatlar</b>	Maqsadga erishish uchun turli yo'llar, g'oyalar va strategiyalarni ishlab chiqish.	– Maqsadga erishish uchun qanday yo'llarni ko'ryapsiz? – Yana qanday g'oyalar bor? – Agar hech qanday cheklovlar bo'lmaganda nima qilgan bo'lardingiz?	"Aqliy hujum"da ishtirok etadi, turli variantlarni taklif qiladi, boshqalarning g'oyalarini rivojlantiradi.	O (Options) – Imkoniyatlar
<b>W (Will/Way Forward) – Harakat rejasi</b>	Eng ma'qul variantni tanlash va uni amalga oshirish uchun aniq qadamlarni belgilash.	– Qaysi variant siz uchun eng ma'quli? – Birinchi qadamingiz qanday bo'ladi? – Rejani amalga oshirishni qachon boshlaysiz? – Sizga qanday yordam kerak bo'ladi?	Eng samarali yechimni tanlaydi, aniq harakatlarni belgilaydi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.	W (Will/Way Forward) – Harakat rejasi

**Dars jarayonida qo'llaniladigan asosiy kouching metodlari**

Bo'lajak pedagoglar yuqoridagi modellarni amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi metodlarni o'zlashtirishlari lozim:

- "Kuchli" (ochiq) savollar berish:** "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Yana nimalar?", "Agar..." kabi savollar o'quvchini chuqur fikrlashga undaydi.
- Faol tinglash:** o'quvchini eshitish bilan cheklanmay, uning fikrlari va hissiyotlarini anglashga urinish. Parafraza va aniqlik kiritish bu jarayonning asosiy vositalaridir.
- Refleksiya (tahliliy mulohaza):** o'quvchini o'z o'rganish jarayoni, yutuqlari va xatolari haqida o'ylashga, kelgusi harakatlarini rejalashtirishga undash.
- Qo'llab-quvvatlovchi teskari aloqa:** baho o'quvchining shaxsiga emas, uning faoliyati va natijalariga beriladi.



### Kouching texnologiyasining asosiy tamoyillari

Bo'lajak pedagoglar dars jarayonida kouchingni samarali qo'llashi uchun uning quyidagi tamoyillarini bilishi muhim:

- Teng huquqli hamkorlik:** o'qituvchi va o'quvchi ierarxiyadan ko'ra hamkorlik asosida ishlaydi. Bu ishonch va ochiqlikni shakllantiradi.
- Salohiyatni ochib berish:** har bir o'quvchi ichida mavjud salohiyatni yuzaga chiqarishga sharoit yaratish.
- Anglash va mas'uliyat:** o'quvchi o'z maqsadi va natijalarini anglab, ular uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
- Yechimga yo'nalganlik:** muammoning sababiga emas, uning yechimiga e'tibor qaratish, aniq reja ishlab chiqish.

### Kouchingga asoslangan darsning afzalliklari

Kouching texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi ortadi: ular o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi.
- Mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi: o'quvchilar tayyor bilimlarni yodlash o'rniga mustaqil izlanishga o'rganadi.
- Tanqidiy fikrlash shakllanadi: ular axborotni tahlil qilishni, solishtirishni va baholashni o'rganadi.
- O'z-o'ziga ishonch va mas'uliyat kuchayadi: o'z qarorlari uchun mas'uliyatni his qilish orqali shaxs sifatida rivojlanadi.
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabat shakllanadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak pedagoglarni kouching texnologiyalari bilan qurollantirish – bu shunchaki yangi metodikani o'rgatish emas, balki ularda o'quvchiga shaxs sifatida qarash, uning salohiyatiga ishonish va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan yangicha pedagogik tafakkurni shakllantirish demakdir. Kouching yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini yaxshilaydi, balki ularni XXI asrning murakkab va o'zgaruvchan dunyosida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Shu sababli, oliy pedagogik ta'lim dasturlariga kouching texnologiyalarini chuqur integratsiya qilish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024–yil 2–fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ–54–son qarori // (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.02.2024–y., 07/24/54/0092–son).
- O'zbekiston Respublikasining 2016–yil 14–sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi O’RQ–406–son qonuni // (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016–y., 37–son, 426–modda).
- Баранова О.И. Коучинг-технология как способ формирования умений самоуправления учением у студентов – будущих учителей начальных классов и младших школьников // Научно-методический электронный журнал “Концепт”. – 2015. – Т. 9. – С. 6–10. URL: <http://e-koncept.ru/2015/95018.htm>
- Бектурсынова Л.Х. Педагогик фасилитация воситасида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Нукус, 2019. – 165 б.
- Беликов В.А. Философия образования личности: деятельностный аспект: монография. – М.: Владос, 2004. – 357 с.
- Божович Л.И. Проблема развития мотивационной сферы ребенка // Изучение мотивации поведения детей и подростков. – М., 1972. – С. 41–42.
- Бухаркина М.Ю. Разработка учебного проекта. – Москва, 2003. – 146 с.
- Clutterbuck D., Megginson D. Mentoring Executives and Directors. – London: Routledge, 2005. – 160 p.
- Clutterbuck D., Megginson D. Mentoring in Action: A Practical Guide for Managers. – London: Kogan Page, 1998.
- Cox E., Vachkurova T., Clutterbuck D. (Eds.). The Complete Handbook of Coaching. – London: SAGE Publications, 2014.
- Саифназаров И., Никитченко Г., Қосимов Б. Илмий ижод методологияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 199 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.